



KORXONALARDA BANKROTLIKNI BAHOLASH BO'YICHA TURLI QARASHLARNING NAZARIY TAHLILI

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

To'raqulova Madinabonu

Guliston Davlat Universiteti talabalari

Turg'unova Sevinch

Guliston Davlat Universiteti talabalari

Annotatsiya: Korxonalarda iqtisodiy nochorligini baholash masalasi bo'yicha dunyo va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'rtasida ancha paytlardan beri munozara qilib kelinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida" qonuni e'lon qilingan. Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasining yo'rinqomalari, amaliy tavsiya kabi bir qancha me'yoriy xujjatlari ishlab chiqilgan. Chunki bozor munosabatlari sharoitida xar bir xo'jalik yurituvchi subyektni bankrotlikdan saqlab qolish katta iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Ushbu masala o'ta dolzarb bo'lganligi, uning ahamiyati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham kattaligini inobatga olgan dunyo iqtisodchi olimlari bilan birga mamlakatimiz olimlari, mutaxasislari, tegishli vazirlik va idoralar ham shug'ullanmoqda. Chunki mamlakatning iqtisodiy taraqiyyoti, uning salohiyati va o'sish sur'ati har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Kalit so'zlar: bankrotlik, byudjet, "Z-schyot", likvidlik koeffitsienti, menejment koeffisiyenti, aktiv, passiv, pul mablag'lari.

Kirish (introduction): Bankrotlik (ital. — singan kursi), s i n i sh — fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag'i yetishmaslididan o'z majburiyatları bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi; qarzdorning majburiyatları molmulkidan oshib ketganligi sababli tovar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi. Bankrotlik, odatda, korxonaning yopilishiga olib keladi. Hozirgi kunda bankrotlikni baholashning bir qancha usullari mavjud:

1. M.S.Abryutina va A.V.Gracheva usuli
2. U.Biverning ko'rsatkichlar tizimi.
3. E.Altman usuli
4. D.G.Fulmer modeli.
5. R.S.Sayfulin va G.G.Kadikovalar usuli.
6. L.V.Donsova va N.A.Nikiforovalar usuli.

E.Altman bankrotlikni oldindan bashorat qilish uchun "Z-schyot"ni qo'llab uni kompleks ko'rsatkichini aniqlash orqali baholash yo'lini ko'rsatib bergen. E.Altman hisob-kitobi bo'yicha "Z-schyot"ning miqdori 1,8 va undan kam bo'lsa korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli juda yuqori. "Z-schyot"ning miqdori 1.81dan 2.7 gacha



oraliqda bo'lsa – yuqori, 2,8 dan 2,9 gacha – o'rtacha va 3,0 va undan yuqori bo'lsa juda kam. E.Altman "Z-schyot" kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va hayotiyligini baholash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish uchun foydali vosita bo'lgan. Biroq bu mukammal bankrotlik bashoratchisi emas, ba'zi cheklov va kamchiliklarga ega.

Dunyo miqyosida Uilyam Biver yetakchi olimlardan hisoblanadi. Mazkur olim bankrotlikni baholashda 5 ta ko'rsatkichdan foydalanadi. (1-jadval)

T \ r	Ko'rsatkichlarning nomi	Aniqlanish yo'llari	Ko'rsatkichlar mohiyati		
1.	U.Biver koeffitsienti (K_b)	$K_b = \frac{S_f + A_{mar}}{U_{mm} + Q_{mm}}$ S_f – sof foyda; A_{mar} – amortizatsiya summasi; U_{mm} – uzoq muddatli majburiyatlar; Q_{mm} – qisqa muddatli majburiyatlar.	0,4–0,45 0,17–0,15		
2.	Rentabelnost aktivov (P_a)	$P_a = \frac{S_f + 100}{A}$ A – aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	6–8	4	-22
3.	Moliyaviy leveridj (M_l)	$M_l = \frac{U_{mm} + Q_{mm}}{A}$	≤37	≤50	≤80
4.	Aktivlarning oborot kapitali bilan qoplanish koeffitsiyenti (K_{aok})	$K_{aok} = \frac{O_{zm} + A_{ot}}{A}$ O_{zm} – o'z mablag'lari; A_{ot} – oborotdan tashqari aktivlar.	0,4	≤ 0,3	= 0,06
5.	Qoplash koeffitsienti (K_q)	$K_q = \frac{O_{ak}}{U_{mm}}$ O_{ak} – oborot aktivlari.	≤3,2	≤2	≤1
1	1 – yaxshi kompaniya; 2–5 yil bankrotlikkacha; 3–1 yil bankrotlikkacha		1	2	3

Korxonaning bankrotligini aniqlash uchun R.S. Sayfulin va G.G. Kadikovalaming tavsiya qilgan usuli ham diqqatga sazovar. Ularning fikricha bankrotlik bitta model bilan aniqlanadi. Bu quyidagicha ifodalangan.

$$K_b = 2 \cdot Q_{om} + 0,1 \cdot K_{jl} + 0,08 - K_{mlok} + 0,45 \cdot K_{men} + K_{rsk}.$$

Bunda:

Q_{om} - o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti;

K_{jl} - joriy likvidlik koeffitsienti;

K_{men} - menejment koeffitsienti (sotishdan olingan foydani sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) hajmiga nisbati);

K_{rsk} o'z mablag'lari rentabelligi (sof foydaning o'z mablag'lariga nisbati).

Bu usulda agar K_b kichik 1 bo'lsa ($K_b < 1$) mazkur korxonaning ahvoli nochor, qoniqarsiz darajada bo'ladi.

Jahon amaliyotida bankrotlik masalasiga katta ahamiyat berilishiga sabab, bozor munosabatlari sharoitida bir yil yaxshigina faoliyat ko'rsatib turgan korxona ikkinchi yilda nochor ahvolga tushib qolishi ham mumkinligini hayot ko'rsatmoqda. Shu tufayli ushbu masalaga barcha hamdo'stlik mamlakatlarida,



ayniqsa Rossiya Federatsiyasida ham katta ahamiyat berilmoqda. Bir qancha Rossiyalik olimlar bu borada tadqiq qilmoqdalar. Jumladan, M.S. Abryutina va A.V. Grachevalarning bankrotlikka baho berish usuli ham diqqatga sazovor.

Xulosa. Ko'rib turganimizdek bankrotlikni baholashda bir qancha usullar va yondoshuvlar mavjud. Bu usullar ayrimlari ijobiy, ayrimlari salbiy natija berishi mumkin. Birinchidan, agar korxona bankrot bo'lsa, mulkdor mulkidan ajraydi. Ikkinchidan, u yerda ishlaydigan bir qancha xodimlar ishsizlik armiya siga qo'shiladi. Uchinchidan, ishsiz qolgan xodimlar oilasida ijtimoiy beqarorlik vujudga keladi, ulaming farovonligi pasayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston ovozi» gazetasi 1996 yil 30 may.
2. A.B.Muxametov. B.Matasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyonashr. 2023.-347 b
3. Gulizahro, T., Iroda, O., & Sevara, M. (2023). Pul mablag 'larining korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni. "Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 45-47.
4. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
5. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.
6. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
7. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKİSTON ORİFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
8. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.
9. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
10. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).